




2021- yil yanvar-avgust oyida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi






2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.





2021- yil yanvar-avgust


Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-avgust oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 550,2** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **125,1 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oyida)





2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-avgust oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	9550,2	125,1
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	417,8	111,6
Moliyaviy xizmatlar	2 381,8	156,8
Transport xizmatlari	1 870,0	113,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 819,7	112,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	143,8	108,6
Savdo xizmatlari	2 867,6	117,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	264,6	123,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	372,9	128,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	145,7	109,1
Ijara xizmatlari	209,4	127,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	193,9	120,6
Shaxsiy xizmatlar	420,7	119,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	64,7	101,2
Boshqa xizmatlar	197,4	117,2



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



**2021- yil yanvar-avgust****Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-avgust oyida ularning ulushi **30,0 %** ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlari hajmida eng past o'sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7 %** ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oyida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,3 %** ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo'lgan – **0,8 %**.

2021- yil yanvar-avgust oyida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlari (**56,8 %**), ta'lim sohasida (**28,3 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari (**23,8 %**), qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oyida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi (**128,5 %**).



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da





2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-avgust oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **30,0 %** ni tashkil etdi, bu esa **2 867,6** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oyida ularning hajmi **2 205,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **31,3 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar-avgust

Xizmatlar hajmi
2 205,7 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
97,3%

Ulushi
31,3 %



2021 y. yanvar-avgust

Xizmatlar hajmi
2 867,6 mlrd. so'm

O'sish sur'ati
117,2 %

Ulushi
30,0 %




2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-avgust oyida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **84,7 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi (2021- yil yanvar –avgust oyida)

**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



6,8 %

84,7 %

8,5 %

**2021- yil yanvar-avgust****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-avgust oyida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **2 381,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oyida ularning hajmi **1 493,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **24,9** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oyida ularning ulushi **21,2** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **888,0** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **56,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-avgust oyida ularning o'sish sur'ati **28,5** % ga yetgan.

**2021- yil yanvar-avgust****Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **58,9 %** ni tashkil etdi.

2021-yilning avgust oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2021- yil yanvar-avgust oyida)



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar-avgust oyida)

2020- y. yanvar-avgust

2021 y. yanvar-avgust

**368,8
mlrd. so'm**

112,5 %

5,2 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

**Jami hajmdagi
ulushi**

Hajmning o'sishi

48,9 mlrd. so'mga

**417,7
mlrd. so'm**

111,6 %

4,4 %






2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **96,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021- y. yanvar-avgust



**Telekommunikatsiya
xizmatlari**



**Boshqa aloqa va
axbo-rotlashtirish
xizmatlari**



Noshirlik xizmatlari



**Kompyuter dasturlashtirish
xizmatlari**



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**268,6
mlrd. so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**372,9
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-
avgust**



**2021- y.
yanvar-
avgust**

2021- yil yanvar-avgust oyida ta'lim soha-sidagi xizmatlar hajmi **372,9** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,9** % ni tashkil etdi. 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **128,3** % ni tashkil etdi.

116,0 %

O'sish sur'atlari, % da

128,3%

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oyida xizmatlar hajmi 268,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish 116,0 % darajasi qayd etilgan.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

117,2

143,8

**2020- y.
yanvar-avgust**

**2021- y.
yanvar-avgust**



**O'sish
sur'ati, % da**

82,3

108,6

2020- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **26,6** mlrd. so'mga ortdi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-
avgust

93,4 %

6,6 %



7,1 %

92,9 %

2020- y. yanvar-
avgust

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-avgust oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,4 %** bilan ustunlik qildi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- y.
yanvar-avgust**

**2021- y.
yanvar-avgust**

**116,2
mlrd. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**145,7
mlrd. so'm**

74,5 %

**O'sish
sur'ati**

109,1 %

1,6 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

1,5 %






2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da (2021- yil yanvar-avgust oyida)



2021- yil yanvar-avgust oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **34,4 %** (2020- yilda **33,8 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Ulug'nor tumanida **2,3 %** (2020- yilda **2,4 %**) qayd etildi.



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2021 yil yanvar-avgust)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021 y.	2020 y.
Andijon viloyati	9550,2	125,1	102,5
Shahar:			
Andijon sh	3287,1	127,6	105,2
Xonaobod sh	327,4	120,0	98,5
Tumanlar:			
Oltinko'l	413,8	125,2	99,9
Andijon	522,1	124,3	100,3
Baliqchi	471,9	125,4	99,0
Bo'ston	236,6	119,5	98,2
Buloqbo'shi	348,0	122,7	98,4
Jalaquduq	367,7	121,4	99,2
Izboskan	459,8	125,1	100,1
Ulug'nor	223,2	119,7	98,4
Qo'rg'ontepa	509,6	125,7	99,1
Asaka	601,6	127,0	100,7
Marhamat	375,4	121,5	100,0
Shahrixon	574,8	126,6	100,4
Paxtaobod	461,2	122,9	99,0
Xo'jaobod	370,0	123,6	98,8

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*



2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**Hajmning
o'sishi**

**2 982,9
ming so'm**

**739,1 ming
so'mga**

2021- yil yanvar-avgust oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 982,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan o'sish sur'ati **122,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-avgust oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 243,8** ming so'mni tashkil etgan.

122,7 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

**25 312
birlik**

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

115,5 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi

**3 402
birlikga**

Ularning umumiy sonidagi ulushi

62,1 %




2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 62,1 %, sanoat 23,1 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 6,6 % ga yetdi. Qurilish sohasi 8,2 % ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- sebtabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 62,2 %, sanoat 22,8 %, qurilish 8,5 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 6,6 % ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-avgust

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



11,0 %

2021- yil yanvar-avgust oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomoni-dan ko'rsatilgan bozor xizmat-larining ulushi **11,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **80,1 %** ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel.: 74-228-30-83